

RANG TASVIRDA MOZAIKA SAN'ATI

Yuldashev Sarvar Abdurozzokovich

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

Sarvar.artsar@gmail.com

***Annotatsiya.** Monumental bezak san'atining turi bo'lmish mozaika tarixi, usuli qanday yaratilishi, uning bo'lagi hisoblanmish inkrustatsiyasi haqida qisqacha ta'rif. Bugungi kundagi bu san'at turni asrab avaylash va rivojlantirish haqida umumiy fikrlar.*

***Kalit so'zlar:** Mozaika, inkrustatsiya, modul, smalta dekorativ bezak.*

***Annotation.** A brief description of the history of Mosaic, the type of Monumental decorative art, how the method is created, the calculated incrustation of its fragment. Today's art is an overview of the preservation and development of the species.*

***Keywords:** Mosaic, incrustation, module, smalta decorative decoration.*

***Аннотация.** Краткое описание истории мозаики как вида монументального декоративного искусства, способа ее создания, расчетной инкрустации. Общие мысли об сохранении и развитии этого вида искусства сегодня.*

***Ключевые слова:** мозаика, инкрустация, модуль, декоративный орнамент из смальты.*

MOZAIKA (frans. masaique — muzalarga bag'ishlangan) — bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar, metall va b.) bulaklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli (monumental) bezak san'atining asosiy turlaridan biri. Asosan, binolar, amaliy san'at asarlarini bezashda, dastgoh. san'ati asarlari yaratishda qo'llanadi. Mozaika yig'ishning 2 xil usuli farqlanadi: naqsh (tasvir) mustaxkamlovchi modda (ohak, sement, mum va b.) surtilib bezatilayotgan yuzaga mayda bo'laklardan to'g'ridan-to'g'ri terib hosil qilinadi; teskari terishda rasmi qog'oz yoki matoga bo'laklar o'ng tomoni bilan yopishtiriladi, so'ng teskari tomoniga mustahkamlovchi modda surtilib, bezatilayotgan yuzaga (devor yoki shift) ga biriktiriladi.

Mozaika, lotin tilida olingan bo‘lib- mosaum, bu san‘at turini Rimliklar shunchalik nafis ekanidan, u Musalar bilan bog‘liq bo‘lgan ishni anglatadi, chunki u faqat Musalar qo‘zg‘atgan ilhom tufayli amalga oshirilishi mumkin deb hisoblashgan.¹

Eng qadimgi mozaika mil.av. III ming yillikka mansub qadimgi mamlakatlar antik davr va o‘rta asrlarda Vizantiya, Italiya, Gruziya, qadimgi Rusda rivojlangan. Ellinizm davri ustalari va qadimgi rimliklar tabiiy rangli toshlardan terib naqshli bezak mozaika hosil qilishgan. Qadimda mozaika deb buyuk shaxslarga bag‘ishlangan kartinalarni aytishgan. Shaxslar umrboqiy bo‘lganidek bu kartina ham umrboqiy bo‘lishi kerak edi. Shuning uchun kartinani bo‘yoqlarda emas, balki eramizdan oldingi V asr qadimgi Gretsiyada rangli toshlardan terib bajarganlar. Syujetli kompozitsiyani devorda va polda ishlashgan. Ayniqsa, yangi eradan oldingi I asrdan boshlab mozaika ishlash Rim san‘atida pol va devorlarda kartina shaklida keng tarqaldi. Keyinchalik maxsus pishirilgan oyna shisha - smalta mayda toshlaridan foydalanilganlar. O‘sha davrlarda keng foydalanilgan smalta toshlaridan terilgan mozaika turi shu kungacha ishlatilmoqda. Smalta - bu suniy rangli toshdir. Qadimgi Misrliklar Smalta toshiga metall okislaridan foydalanib rang berishgan. Ko‘p yillar davomida mebel va uy anjomlarida bezak tosh vazifasida ishlatishgan.

Rim mozaikasining asosiy elementi kub shaklidagi kichik rangli tosh yoki smalta bo‘lib, uni deb atashgan. Modul qancha kichik bo‘lsa, mozaikali asar jozibali va nafis bo‘lgan. Mayda modulli mozaika amaliy san‘atda dekorativ bezak sifatida maishiy buyumlarni bezashda ishlatganlar. Ammo mozaikani asosiy ishlatilishi monumental san‘at hisoblanadi.

Mozaika - arxitektura bezagining eng qadimiy tasviriy san‘at turlaridan biri hisoblanadi. Mozaika hozirgi vaqtda ham o‘z qimmatini yo‘qotmay badiiy jihatdan rivojlanib uning yangidan-yangi texnika va texnologiyalari, usullari yaratilmoqda.

IV-XV asrlarda Vizantiyada mozaika yanada rivojlanib kata maydonlarni; xram, inter‘erlarini naqsh, murakkab ko‘p qomatli kompozitsiya bilan bezashgan. Masalan, Konstantinopol shahrida Qahriya Jom‘e masjidi (1316-1321) va boshqalar.

Mozaika qadimgi Rus davlatiga X asrda kirib kelib, ikki yuz yil davr mobaynida cherkov binolarini bezagan. Namuna sifatida, Sofiya cherkovi (1049-1046-yy) va Kievdagi Arxangel Mixail (1108-1113) cherkovlarini keltirish mumkin.

XVIII asrda Rossiyada M.V.Lomonov tomonidan yangi smalta tayyorlash usulini ishlab chiqdi va «Poltava jangi» kartinasini mozaikada bajardi. Keyinchalik monumentalist - rassomlar P.D.Korin, A.A.Deyneka Moskva shahridagi metro

¹ Mark Sanchez, Warbletoncouncil. Encyclopedia, 2023y.

stansiyalarini mozaika bilan bezashdi. Mozaika san'ati keyinchalik Gruziyada ham rivojlandi.

Mozaika ishlash uslubi qiyinroq bo'lsada mozaika toshlarining rangi yorqinligi, rangi o'zgarmasligi, uzoq muddatga chidamliligi rassomlarda katta qiziqish hosil qildi. Mozaika yuz yillab saqlanishi mumkin ¹ (1-rasm)

1-rasm. Rangli toshlardan yasalgan mozaika



Mozaikaning alohida turi – Inkrustatsiya bo'lib bu san'at — binolar, haykallar va boshqa har xil buyumlarning marmar, noyob toshlar, turli metallarning bo'laklarida o'yilgan naqshlar va tasvirlar bilan bezatish tushuniladi. Qadimgi Sharqdan vujudga kelgan. Dastavval inkrustatsiya nuqtai nazaridan bezatiladigan ob'yektlarning muhim unsurlari ajratib olinar edi. Bular haykallar va byustlarning ko'zlari, har xil me'moriy unsurlar edi. XI—XIII asrlarda inkrustatsiya san'ati o'z rivojlanishining eng yuqori darajasiga erishadi. Antik san'at an'analaridan foydalangan Uyg'onish davri Italyan ustalari oqtoshdan tiklangan imoratlarni har xil rangdagi marmar va boshqa rangli toshlardan ishlangan serjilo naqshlar, ko'plab lavhalar-pannolar bilan bezaydilar. Aynan o'sha kezlarda inkrustatsiyaning boshqa bir ko'rinishi — intarsiya — yog'och buyumlarni har xil rangdagi yog'ochlarning yupqa taxtachalaridan yig'ilgan turli naqshlar va tasvirlar bilan ziynatlash ham vujudga keladi. Hozirgi zamonda inkrustatsiyadan kundalik turmushda insonni qurshab turuvchi amaliy buyumlarni bezatishda foydalaniladi.² 2-rasm.

¹ R.A.Xudayberganov, Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi . Toshkent 2015y

² <https://milliycha.uz>



2-rasm Inkrustatsiya san'atida ishlangan buyum

Bugungi kunga kelib mozaika ko'rinishidagi binolar inshootlarni shahrimiz Toshkentda ko'plab uchratish mumkin. Masalan: yer osti metro transportining birnecha bekatlarida misol; Toshkent va Paxtakor bekatlari. Shaharda istiqomat qiluvchi ko'p qavatli binolar devorlarida, va shahar masjidlari keltirishimiz mumkin. Ularni ko'rgan inson biroz bo'lsada, doimiy tashvish kundalik yumushlarni unutib asar haqida o'ylashi yoki e'tibor berishi aniq. Sababi bu san'at turning mehnat mashaqqati oson emas. Asar yaratilishidan avval ijodkor rassom eskiz, xomaki rasm yaratadi va uni asosiy o'rnatiladigan joyiga moslashtirib qaytadan chizadi. So'nggi bosqichda eskiz asosida rangli tosh, marmar yoki o'zi uchun nimani qulay deb hisoblasa shu material asosida mazaika yaratib, mayda bo'laklarni to'g'ridan to'g'ri terib, taxlab boshlaydi.

Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi Vasiylik kengashi raisi o'rinbosari Saida Mirziyoyeva Toshkent shahridagi binolarga tushirilgan mozaika pannolarni saqlab qolish, haqida fikr bildirgan. U «Premier Hall» kinoteatri binosini restavratsiya qilish vaqtida rassom Alfred Mazitovning «Kokilli qiz» nomli ajoyib pannosiga duch kelib, shahrimizning yorqin, o'ziga xos jihatlaridan biri, iste'dodli va taniqli rassomlar tomonidan turli davrlarda yaratilgan mozaika pannolarni saqlab qolish, Toshkentning monumental san'at yodgorliklari shahrimizni modernizm poytaxti deb atashga asos bo'la olishi, aynan ushbu yodgorliklar Toshkentga betakror shahar qiyofasini baxsh etadigan ajoyib bir ramz bo'lishini bildirib o'tadi.

Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamda Grace arxitektura byurosi monumental san'atni saqlab qolish va modernistik arxitekturani zamonaviy megapolis bilan uyg'unlashtirish bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Biz mozaika pannolar tushirilgan noyob binolar egalarini ushbu san'at asarlarini saqlab qolish va ta'mirlashga chaqirib qolamiz.

Tarixiy merosni asrab-avaylash kelajak avlod oldidagi burchimizdir. Toki g'animat umrni beparvo o'tkazganlikda aybdor bo'lib qolmaylik. Keling, bu bebaho merosni ular uchun asrab qolaylik!» deyiladi Saida Mirziyoyevaning ijtimoiy sahifalarida.

Xulosa qilib aytganda mozaika san'atini bugungi kundagi ahamiyati ham juda dolzarb bo'lib qolmoqda. Vaholanki millatning tarixi va kelajagini qanchalik buyukligini ko'rsatishda aynan tasviriy san'atning ushbu turini o'rni beqiyosligini bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda ulg'ayayotgan yoshlarimiz ham tushunib yetmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mark Sanchez, Warbletoncouncil. Encyclopedia, 2023y.
2. R.A.Xudayberganov, Mahobatli rangtasvir texnika va texnologiyasi . Toshkent 2015y
3. <https://milliycha.uz>